



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.



MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURSLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQEALANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TerGU)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMED)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDJTU)	



<u>ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.KALBAEV (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURADOVA (O'zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN'IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO'SHIYEVA (УМО'IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA O'ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.Г. БУКРЕЕВА (УМЭД)	



vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida (Qaror № 83).

4. Rakhimova, N. Kh. (2025). Rus tilini o’qitishning innovatsion shakllari [Innovative forms of teaching the Russian language]. *American Journal of Education and Learning*, 3(1). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14708785>
5. Umirzakova, B. A., & Raximova, N. X. (2025). Innovative technologies and digital platforms in teaching Russian as a foreign language. *International Journal of Formal Education*, 4(10). <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>
6. Warschauer, M. (2004). *Technology and social inclusion: Rethinking the digital divide*. MIT Press.
7. Xalq So’zi. (2020, May 26). *Barqaror rivojlanish maqsadlari: 2030 yilgacha ta’lim olish sifati yanada yuksaladi*. <https://xs.uz>
8. Yusupov, A., & Zikirov, T. (2024). *Sifatli ta’lim – barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning eng qisqa yo’lidir*. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti.

TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI

O.Q.MO’MINOVA (O’zDJTU)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek tilini o’qitishning konseptual asoslari va strategik maqsadlari tadqiq etiladi. Til o’rgatish jarayoni faqatgina lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish emas, balki talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va savodxonlik darajasini tizimli oshirish vositasi sifatida talqin qilingan. Shuningdek, til ta’limining lingvokulturologik jihatlari – xalq tarixi, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga nisbatan hurmat hissini uyg’otish hamda atrof-

muhit haqidagi dunyoqarashni kengaytirish masalalari matn tahlili texnologiyalari orqali asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: *matn bilan ishlash, lingvistik kompetensiya, mantiqiy tafakkur, funksional savodxonlik, lingvokulturologiya, kommunikativ koʻnikmalar.*

Dars davomida amalga oshiriladigan eng murakkab ish turlaridan biri darsda matn bilan ishlashni mazmunli tashkil etishdir. Bugungi yangilangan ta’lim mazmuni sharoitida o’qitishning asosiy xususiyati o’quv jarayonini yangicha tashkil etish, talabalarning fikrlash, nutq soʻzlash, o’quv faoliyati orqali o’z fikrlarini erkin ifoda etish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish va mustaqil o’rganish jarayonida birgalikda ishlashdir. O’zbek tilini o’qitish jarayonida bugungi ta’limning asosiy muammosi pedagogikaning ilg’or modellaridan innovatsiyalar bilan foydalanish va tajribani boyitishdir [Sayidahmedov, 2003: 50], bu esa kelajakda hayotda o’z o’rnini topa oladigan, to’g’ri va ilg’or fikrlaydigan, o’ziga ishongan, chinakam vatanparvar va aqlli avlodni tarbiyalashdan iborat.

Hamkorlikdagi o’qitishdan samarali foydalanish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin: talabalarning o’qishga qiziqishini oshirish; biznes ko’nikmalarini rivojlantirish; o’ziga ishonchni shakllantirish; mustaqil ravishda o’qish va asosiy g’oyani aniqlash qobiliyatiga ega bo’lish; maqsadlarga mustaqil ravishda intilish; fikrlash faolligini oshirish; ijodiy ko’nikmalarni va o’z fikrini ifoda eta olish qobiliyatlarini rivojlantirish [Johnson, 2009: 365]. Bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilash juda muhim o’zgarishlar bosqichida turibdi. Yangilangan o’quv dasturiga muvofiq o’qish, yozish, gapirish va tinglash ko’nikmalarini rivojlantirish talabalarga har qanday muhitda muloqot jarayonida olgan bilim va ko’nikmalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kun talabi har tomonlama rivojlangan, funksional jihatdan barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Buning uchun o’qitish usullariga o’zgartirishlar

kiritilmoqda. Avvalo, asosiy maqsad tilni o’rgana oladigan, shu tilda fikrlay oladigan va shu tilda gapira oladigan fuqaroni tayyorlashdir. Bugungi uzluksiz o’zgarishlar va yangi texnologiyalar davrida talabalarimiz uchun shunchaki fanning turli sohalarini bilishning o’zi yetarli emas. Globallashuv davrida bilimli bo’lish, shuningdek, ushbu bilimlarni hayotda samarali qo’llay olish, duch keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni hal qilish yo’llarini topish juda muhimdir. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda talabalarning funksional savodxonligini shakllantirish masalasi dolzarbdir. Uning asosiy maqsadi umumta’lim maktablarida intellektual, jismoniy va ma’naviy jihatdan rivojlangan O’zbekiston Respublikasi fuqarosini shakllantirish, uning dunyoga ijtimoiy moslashuvini ta’minlashdir. Ya’ni, talabalarga maktabda olgan bilimlaridan hayotda samarali foydalanishni o’rgatishdir. S.Muhamedova va M.Saparniyozovalar ta’kidlaganidek, matn tilshunosligi doirasidagi tadqiqotlar til o’rganishning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [S.Muhamedova va M.Saparniyozova, 2024]. Shu nuqtayi nazardan, matn bilan ishlash talabalarning funksional o’qish savodxonligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Talaba asar va matnni ishtiyoq hamda qiziqish bilan o’qishi uchun samarali, qiziqarli, shuningdek, innovatsion usullardan foydalanish zarur. Bunday ishlar davomida talabalarning o’qish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: bir qarashda o’qish, takrorlash; matnning sarlavhasi va boshlang’ich qismiga asoslanib, hikoyaning rivojlanishini bashorat qilish; matnning asosiy g’oyasi va qismlarini aniqlab o’qish; ma’lumot topish uchun o’qish, qiziqish bilan o’qish va o’z nuqtayi nazarini ifoda etish hamda matnni og’zaki va yozma ravishda bayon etish.

Matn til o’rganishdagi asosiy vositadir. U o’qish, yozish, tinglash va gapirish orqali amalga oshiriladi. Matn bilan ishlash til o’rganuvchining so’z

boyligini boyitishga va unga ravon gapirishni yoki o‘z fikrlarini ochiq va aniq ifoda etish qobiliyatini shakllantirishga qaratilganligi sababli, til o‘rganishda matn bilan ishlashda biz ko‘plab afzalliklarga ega bo‘lamiz. Birinchidan, agar o‘quv materiali o‘quv matnlari shaklida bo‘lsa, ikkinchidan, mashqlarni butun matn shaklida taqdim etish ham matn bilan bajarilgan ishlarni tabaqalashtirilgan tizimlashtirishni talab qiladi. Matnning funksiyasi bilan tanishtirish talabiga til birliklarini funksional nuqtayi nazardan tushunish imkonini beradi va shu bilan mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu jihatdan, o‘qituvchi faqat matn bilan tizimli ravishda ishlaganda va talabada malakali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantira olgandagina haqiqiy natijalarga erishishi mumkin. O‘qitish va o‘rganish jarayonida talaba matn orqali nazariy va kognitiv ma’lumotlarni oladi va olingan ma’lumotlarni qabul qilish va mulohaza qilish orqali uni hayotda ijodiy faoliyat bilan qo‘llaydi

Agar matn semantik va strukturaviy jihatdan yakunlanishi, muallifning axborotga yondashuvi va axborotning obyektivligi bilan namoyon bo‘lsa, unda ijodkorlik – bu nostandart qarorlar qabul qilishda insonning fazilatlarini namoyish etish qobiliyatidir. Bugungi kunda maktab talabalarining kundalik o‘qishdagi, fanlar bo‘yicha umumashtiruvchi baholash ishlaridagi, yakuniy sertifikatlash imtihonlaridagi va tashqi va mustaqil baholash testlaridagi ko‘nikmalarini oshirish, taqdim etilgan matnda axborot topish ko‘nikmalarini oshirish uchun matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish juda muhimdir.

Topshiriqni bajarishda talaba matnni “ko‘zdan kechirishni”, uning asosiy elementlarini aniqlashni va har qanday xususiyatlarga asoslanib, semantik birlikni topishni (o‘xshashliklar, farqlar, sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash va boshqalar), ma’lumotlarni taqqoslashni, muallifning nuqtayi nazarini tushunishni va javob tayyorlashda olamni o‘zicha tushunishiga tayanishni va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish uchun dalillar keltirishni o‘rganishi kerak.



[Halpern, 2003: 112]. Shuning uchun matn bilan ishlashning maqsadi matnning lingvistik–strukturaviy va stilistik tizimini ilmiy va nazariy jihatdan asoslashdir. Matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali talabalarning ijodiy izlanishlarini, mustaqil fikrlashlarini yaxshilash, olingan ma’lumotlar orqali tanqidiy fikrlash va metakognitiv qobiliyatlarini oshirish maqsadi qo‘yiladi. Matn bilan ishlashda nazariy bilimlar amaliy ishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, og‘zaki va yozma ishlar matn va ijodkorlikning ichki qonunlaridan mohirona foydalanishga, nazariy tushunchalarga asoslangan matn va ijodkorlik bo‘yicha turli darajadagi vazifalar bilan ijodiy va mustaqil tadqiqot ishlari olib boriladi. Matn mazmunini har tomonlama ochib berishda guruh, juftlik va individual ishlar, mavzular bo‘yicha til va matn tahlili, tanqidiy fikrlashga oid vaziyatli topshiriqlar va ijodiy topshiriqlar kabi usullar beriladi, bu esa talabalarga o‘z tadqiqotlarini amalga oshirish imkonini beradi. Matn bilan ishlashda lingvistik (hikoya, dialogik o‘qitish, guruh bo‘lib o‘qitish, hamkorlikda o‘qitish), vizual (kognitiv, tadqiqiy, syujetli, hujjatli filmlar namoyishi, taqdimot) usullardan foydalaniladi. Amaliy (mashqlar, vazifalar, grafik organayzerlar, ijodiy ishlar, axborot qidirish), reproduktiv, muammoni qidirish va tanqidiy fikrlash strategiyalari kabi usullardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan ishlar o‘quv jarayonida amalga oshirilganda, talabalardan quyidagi natijalarni kutish mumkin: ular matnga oid strukturaviy xususiyatlarni, o‘ziga xoslikni va lingvistik atamalarni o‘zlashtiradilar; matn turlari va ijodiy ish turlarini ajrata oladilar va ulardan strukturaviy xususiyatlariga muvofiq foydalana oladilar. Turli janr va mavzulardagi hamda turli tipdagi matnlarning mazmunini tushunadi va ularni sharhlay oladi, taqqoslay oladi, baholay oladi va o‘zgartira oladi; matnning yashirin ma’nosini va majoziy ma’nosini hamda matnga kiritilgan so‘zlarning semantik guruhlarining mazmunini aniqlay oladi; matn bo‘yicha axborot qidiruvini amalga oshirish uchun turli xil o‘qish

strategiyalaridan foydalanadi, kerakli ma’lumotlarni tanlaydi va qayta ishlaydi; uning janri va uslubiy xususiyatlariga muvofiq ijodiy ishlarni bajara oladi. Shuningdek, turli manbalardan ma’lumot to’plash orqali ular o’z o’y-fikrlarini, qarashlarini turli uslub va janrlarda, ham og’zaki, ham yozma ravishda ifoda etishlari mumkin.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy ta’limda matn bilan ishlash orqali talabalarning funksional savodxonligini va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularni ijodiy yondashuvlar orqali hayotiy ko’nikmalar bilan qurollantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Innovatsion metodlar va tizimli tahlil yordamida talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash, mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashish qobiliyatlarini oshiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Halpern D. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2003, 112.
2. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An Educational Psychology Success Story: Social Interdependence Theory and Cooperative Learning. Educational Researcher, 38(5), 365–379.
3. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn tilshunosligi. –Toshkent: Turon-edu, 2024.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.:Moliya, 2003. –172 b.
5. Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. –Toshkent, 2009.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-sonli Farmoni. “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”, 2020-yil 29-oktyabr.